



OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA "CHOLG'U ANSAMBLI"NI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ZARURATI

Muallif: Gulliyeva Yulduzxon Yuldashevna¹

Affilyatsiya: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14376870>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oliy ta'lrim tashkilotlarda "Cholg'u ansambli"ni tashkil etishning pedagogik zarurati, mazmuni, nazariy asoslari hamda uning pedagogik shart-sharoitlari muhokama etilgan.

Kalit so'zlar: cholg'u, cholg'u ansambli, tashkilot, pedagogik, shart-sharoit, qoida, islohot, ta'lrim, tarbiya, musiqiy tarbiya, cholg'u ijrochiligi.

Musiqa ta'limi tizimida yosh avlodning musiqiy ruhiyatini tarbiyalash, ularni san'atga oshufta qilishda oliy ma'lumotli musiqa pedagoglarining alohida o'rni borligi bugungi globallashuv sharoitida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Cholg'u ansambli va ijodiy ansanbillarni takomillashtirish, uni keng yoyish masalalariga ta'lrim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ta'lrim-tarbiysi borasida olib borilayotgan izlanishlar ahamiyatlidir. Germaniya, Fransiya, Italiya, Rossiya, AQSh, Finlyandiya, Xitoy, Shimoliy Koreya kabi mamlakatlar tajribalari asosida ansanbillar faoliyatini takomillashtirish, bu orqali musiqa pedagogikasi talimida tahsil olayotgan yoshlarning muqiqiy madaniyatini rivojlantirish va amalda qo'llash metodikalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu borada "Sharq taronalari" an'anaviy xalqaro musiqa festivalining o'tkazilib kelinishi, milliy mumtoz asarlarni ansamblida ijro qilishga o'rganish, uni keng targ'ib etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilayotganligi quvonarli hol.

Bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda milliy mumtoz asarlar asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqiy ijodkorligini rivojlantirish, ansambl tuzishning nazariy va amaliy masalalarini targ'ib etish, yuksak ijro mahorati asosida yuqori pedagogik natijalarga erishish, bo'lajak musiqa o'qituvchisining musiqiy qobiliyatlarini yuksaltirish kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda bo'lajak musiqa o'qituvchilariga ansambl tuzish asoslarini o'rgatish uchun sharoitlar yaratish, ijro mahorati orqali pedagogik natijalarga erishishni ta'minlash borasida 14 ta maqom markazi va 4 hududda maqom makkabari tashkil etildi, muntazam ravishda ko'rik-tanlov va festivallar hamda maqomchilar va cholg'uchilar ansanbillari ijrosini yozib olishga doir ishlar amalga oshirilmoqda va moddiy texnik bazasi yaratilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida milliy musiqani o'rganishni yangi talablar nuqtai nazaridan tahlil qilib, qayta ko'rib chiqish belgilangan. Natijada yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, intellektual salohiyatli, mustaqil fikrlay oladigan va yuksak ma'naviyatlari shaxslar sifatida tarbiyalashda keng imkoniyatlar yaratiladi. Shu jihatdan musiqiy ta'limga yo'naliishida "Cholg'u ansambl" kursining mazmunini ishlab chiqish va uning o'qtish metod va texnologiyalarini belgilash ushbu ishning dolzarbligini bildiradi.

Shu o'rinda aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bir qator qarorla qabul qilindi. 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-son, 2018-yil 14-avgustdagagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'limga tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrdagi "Maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan muktab-internatlarni tashkil etish to'g'risida"gi №940-sonli, 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son farmoni, 2020-yil 2-sentyabrdagi "Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 536-sonli qarorlari shular jumlasidandir.

Oliy ta'limga tashkilotlarida "Cholg'u ansambl"ni tashkil etishning quyildagi pedagogik vazifalari mavjudligini ko'rsatdi:

pedagogika oliy ta'limga muassasalarida "Cholg'u ansambl" kursi mazmunini ishlab chiqishga doir adabiyotlarni tahlil qilish;

akademik ansambl va talabalar ansamblining o'ziga xos xususiyatlari, badiiy rahbarga qo'yiladigan professional hamda pedagogik talablar, mustaqil ta'limga jarayonini rivojlantirishga qaratilgan ta'limga texnologiyalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish;

ansambl ijrosiga tavsiya etiladigan asarlarni tanlash hamda uni ijro etish metodikasi bo'yicha bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy pedagogik tayyorgarligi rivojlanishini aks ettirgan tashkiliy-pedagogik modelni ishlab chiqish;

shuningdek, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kasbiy nazariy va amaliy tayyorgarligining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlarini shakllantirishdan iborat.

Xulosa sifatida shuni a'lovida ta'kidlash lozimki, ansambl ijrosiga oid asarlarni o'rganish jarayonida zamonaviy metod va texnologiyalar vositasida talabalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'lajak musiqa o'qituvchisining mustaqil ta'limga mashg'ulotlarini tashkil qila olishga ko'maklashadigan nazariy tayyorgarligini ta'minlash va bo'lajak musiqa o'qituvchilarining birgalikda tinglash, kuylash va ijro etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Gullieva Yu.Yu. Qadimgi milliy ansambllar va ularga ijrochilik san'atining takomillashuv jarayoni ta'siri. TDPU ilmiy axborotlari.

Gullieva Yu.Yu. Ansambl ijrochiligidagi o'zbek xalq musiqa madaniyatining umumnazariy masalalari. (2024). Ta'limdi Raqamli Texnologiyalarini Tadbiq Etishning Zamonaviy Tendensiyalari Va Rivojlanish Omillari, 30(2), 140-145.

